

## Maktab O'quvchilariga Huquq Darslarini Tashkil Qilish Va Yangicha Metodlar Qo'llash

*Hajiyeva Zulkumor<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga huquq fanlarini o'tishda yangicha metodlar qo'llash hamda o'quvchi yoshlar o'rtasida fanga bo'lган qiziqishini shakllantirishdan iboratligi haqida fikr yuritilgan. Bugun jadal rivojlanib borayotgan zamonda yangicha firklaydigan yoshlarni tarbiyalashda huquq fanlarining ahamiyatini rivojlantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Uchinchi Renessans, Xalq ta'limi tizimi, metodika, A4 formati, aqliy hujum.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak"<sup>2</sup>, degan muhim vazifa qo'yildi. Ma'lumki, 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepiyasi"da ta'limning mazmuni va metodlarini yangilash muhim vazifa sifatida belgilangan.<sup>3</sup> Huquqni o'qitish metodikasi bo'lajak o'qituvchilarga dars o'tish qoidalarini o'rgatadi. Fanni o'qitishda metodika asosiy o'rın egallaydi. O'z metodikasiga ega o'qituvchi o'quvchilarga fanni yetarli darajada sifatlari qilib tushuntirib bera oladi. Bunda asosan huquq fani o'qituvchisi zimmasiga yosh avlodni yetuk va barkamol qilib tarbiyalash kabi mas'uliyatli zimmani yuklaydi. Bugungi kunda huquq fanidagi terminlarni tushuntirish ham yetarli natijalar beradi. O'quvchilarda konstitutsiyaviy burch va majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish, o'z xatti-harakatlarini belgilangan me'yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida davlat va huquq asoslari va o'rta maxsus, kasb hunar ta'lim muassasalarida huquqshunoslik fani bo'yicha ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini chuqur o'rganish muhim hisoblanadi. Huquq fanini o'qitishda mahalliy uslubi turli jabhalarga bag'ishlangan ko'plab mutaxassislarining kasbiy faoliyati tufayli rivojlanadi. Bu borada esa ilmiy izlanishlarning faollashishi faqat 20-asr o'rtalaridan boshlangan. Alekseeva, B.C.Afanasiev, G.P.Davydova, A.V.Drujkova, V.V.Lazareva, Ya.S. Shchatilo va boshqa ko'plab mualliflar huquqiy ta'lim jarayonida ko'plab masalalarni ko'tardilar, huquqiy bilimlarning amaliy yo'nalishiga e'tibor berishni taklif qilganlar. Olimlarning fikriga ko'ra huquq fanini o'qitish jarayonida bir nechta qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Bunda 8- sind o'quvchilari konstitutsiyaviy huquqning murakkab mavzularini o'zlashtirishga tayyor emasligi aniqlangan. Maktablarda huquq fanlarini o'tishdan oldin ushbu fan o'quvchilarga nimaga kerakligi, mazmun va mohiyati nimalardan iboratligi o'qituvchi tomonidan tushuntirish berilishi zarur.

Maktabda o'qitiladigan huquq darslarida o'zlarining oldilariga qo'ygan maqsad va ularning mazmuni belgilab berilganki, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. ular hozirgi davr huquq fani darajasida bo'lishi lozim;

<sup>1</sup> Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at" fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.

<sup>3</sup> 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepiyasi"



2. darslik dastur talablariga to'la mos bo'lishi, uning mazmunini olib berishi, o'quvchilarni dastur talabi darajasidagi bilim bilan qorollantirmog'i lozim;
3. darslik, mavzularning xarakteri, mazmuniga ko'ra bir-birlaridan ham mustaqil bo'lishi shart;
4. belgilangan mavzuni ajratilgan soatda o'tilishi, materiallar esa bolalarning tayyorgarlik darajasiga mos bo'lishi shart;
5. darslik mazmunan qisqa va kerakli detallarni o'z ichiga olmog'i lozim;
6. darslik o'quvchilar uchun tushunarli tilda sodda va ravon qilib yozilishi shart;
7. darslik mavzularini tez va oson o'zlashtirib olishga yordam beradigan ko'rgazmali vositalar, illyustrasiyalar bilan boyitilishi shart;
8. har bir darslik materiallari o'quvchilarni zeriktirmaydigan, qiynamaydigan bo'lmos'i lozim;
9. kitobning rang va bezaklari bolalar sog'lig'iga, ko'rish organlariga salbiy ta'sir etmasligi lozim.

Bularning hammasi huquq darsliklariga qo'yiladigan eng asosiy talablar hisoblanadi. Darslik huquqdan majburiy bilim hajmini belgilab beradi. O'quvchi yangi material va ma'lumotlarni eng avvalo o'qituvchining og'zidan eshitadi. Huquq darsida o'qituvchi bolalarni darslik bilan, uning tuzilishi bilan tanishtiradi. Mazkur fanga oid yangi tushunchalar haqida fikrlar beradi. Bugungi kunda zamon bilan hamnasaf tarzda zamonaviy o'qituvchiga bo'lgan talab har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj kuchaymoqda. Zamonaviy o'qituvchi fanini puxta bilishi kerak. O'quvchilar bilan ishslashda esa pedagogik mahorat muhim o'rinni tutadi. Hozirgi kunda dars sifatiga beriladigan baho qoniqarli tarzda baholanmoqda. Chunki o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlari uncha yaxshi darajada bo'limganligi bilan o'lchanmoqda. Buning natijasida esa fan bo'yicha yetarli maqsadlarga erishib bo'lmayabdi. Hozirgi yosh avlodni huquq fan tarmog'iga qiziqtirishning yagona yo'li yangicha metodlar bilan dars o'tish deb hisoblayman. Masalan, oddiygina A4 format qog'ozni orqali ham o'quvchilar o'zlashtirib olgan bilimlarida haqida bilib olishimiz mumkin. Bunda asosan ish quroli sifatida A4 formatidagi qog'ozni o'quvchilarni guruhlarga bo'lgan holatda tarqatiladi va ushbu qog'ozga o'quvchilar huquq fanida o'rgangan bilimlarini yozishadi. Bu metod orqali o'quvchilarni o'zlashtirgan bilimlarini takrorlashadi. Hattoki, fanga qiziqishi bo'limgan o'quvchi ham ma'lumot yozishga harakat qilib kitob varaqlay boshlaydi. Bu metodning yana bir afzal tomoni shundaki, o'quvchi qaysi mazvudan juda yaxshi tushunganligi va shu mazvu haqida mustaqil ma'lumotlarni yoza olishini ham bilib olamiz. Bundan tashqari o'quvchilarda har xil xotira mavjud. Qaysidir o'quvchida ko'rish qobiliyati orqali xotirasi yaxshi rivojlangan bo'lsa, qaysidir o'quvchida eshitish orqali mavzuni yaxshi o'zlashtira oladi. Hozirgi kunda keng tarqalgan metodlardan biri "aqliy hujum" metodidir. Huquq fanlarini o'qitishda ushbu metod ham samarali ta'sirga ega. Masalan, huquqda turli xil muammoli vaziyatlar yuzasidan savol tug'ilishi mumkin. Bunda esa ushbu metod yordamga keladi. Tezda o'qituvchi tomonidan savol o'rtaqa tashlanadi va o'quvchilar fikrlay boshlaydilar. Vaziyat yuzasidan o'quvchilar huquq fanida o'rgangan bilimlari va tajribalaridan kelib chiqib fikr bildira boshlaydilar. Fanga bo'lgan qiziqishlari shu tarzda osha boshlaydi. "2020-yil 30-oktabrda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik texnikumlari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hukumat 5987-sonli qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorda yuridik texnikumlari o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom tasdiqlanib, unda texnikumlarga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish, kirish imtihonlarini o'tkazish tartibi, kirish imtihonlari natijasi bo'yicha berilgan appellatsiyalarni ko'rib chiqish hamda ularni o'qishga qabul qilish normativlari aniq ko'rsatib o'tilgan edi". Ushbu islohotlarning tub mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi kun yoshlarining kelajak bunyodkori sifatida huquq fanlariga bo'lgan qiziqishlari qaydarajada va ushbu ko'rsatkichni ko'tarish kerakligiga e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kun yoshlarini huquq fanlariga qiziqtirish orqali o'zlarining huquqiy bilimlarini oshishirishga va o'z haq-huquqlarini to'laqonli anglashga yordam beradi. Shu bilan birga o'quvchilarda huquqiy tushunchalar haqida fikr paydo bo'ladi. Huquqiy tushunchalar har bir kishining dunyoqarash va axloqiy qarashlarini tartibga soladi. Huquqiy normalar yordamida nima qilish mumkinligini, nima zarurligini, nima qilish mumkin emasligini o'rgatadi. Barcha huquqiy



tushunchalar huquq, huquq normasi, huquqiy munosabatlar, huquqbazarlik, huquqiy javobgarlik, mehnat shartnomasi, huquqiy layoqat va hokazolar obyektiv haqiqatning yuridik tavsifnomasini tashkil etadi. Bunda iqtisodiy mazmun, siyosiy yo'nalish, axloqiy pozisiya, yuridik ahamiyati singari xususiyatlar ochib berildi. Ijtimoiy hodisalarining mohiyati huquq va burchlar birligini huquqning umumiyligini ochib berish ham huquqiy tushunchalar vositasida amalga oshiriladi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.
2. 2019-yil 29-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepiyasi"
3. <http://fayllar.org/huquq-ezgulik-va-adolat-sanatidir-u-insoniyat-manfaati-uchun-y.html?page=3>

